

Axatova Zohira Aktam qizi,

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,

San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti,

San'atshunoslik (tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishi 3 bosqich talabasi

zohiraaxatova5@gmail.com +998901267420

LORENZO GIBERTI IJODIGA TAVSIF JANNAT DARVOZASI

(SHIMOLIY) KESIMIDA

Annotatsiya: Mazkur maqlada Renessans davrining mashxur rassomi Lorenzo Gibertining San Jovanni cherkovining shimoliy tomonida joylashgan, “Jannat darvozasi” deb nom olgan va ushbu darvozaga tushirilgan, Yangi Ahddan so’zlovchi relyeflar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Lorenzo Ghiberti, San Jovanni Cherkovi, Jannat Darvozasi (shimoliy), Injil, Bibliya, Yangi ahd, Relyef.

Аннотация: В статье анализируются новозаветные рельефы известного художника эпохи Возрождения Лоренцо Гиберти, расположенные на северной стороне церкви Сан-Джованни, получившей название “Ворота Неба” и помещенные на этих воротах.

Ключевые слова: Лоренцо Гиберти, церковь Сан-Джованни, Небесные врата (север), Библия, Библия, Новый Завет, Рельеф.

Annotation: This article analyzes the New Testament reliefs of the famous Renaissance artist Lorenzo Ghiberti located on the north side of the church of San Giovanni, named “Gate of Heaven” and placed on this gate.

Keywords: Lorenzo Ghiberti, Church of San Giovanni, Gate of Heaven (north), Bible, Bible, New Testament, Relief.

KIRISH

G’arbiy Yevropa uyg’onish davri san’ati keyingi san’atning rivojlanishida muhim urin kasb etdi. Relyefli kompozitsiya asosida yaratilgan haykaltaroshlik va antik davrga murojaat relyefli haykaltaroshlikning rivojiga tasir qildi. Italiya ijodkorlari uchun qilingan yangi kashfiyot sanaldi. Shu bilan birga Renessans davrida Italiyaning san’ati yangi mavzular, antik mifologiya va injildagi yangi syujetlarga murojaat o’zining aloxida davrga bo’linishiga sabab bo’ldi.

ASOSIY QISM

Lorenzo Gibertini mashhur qilgan bu darvoza San Jovanni Cherkovi uchun ishlangan. 1400-yilda, Florensiyada vabo tarqaydi shu sababli yosh rassom shaharni tark etib, Rimga jo’nab ketgan edi va u erda mahalliy kondottier Karlo I Malatesta unga saroyining freskalarini ishslash topshirig’ini olgan bo’ladi.¹ 1401 yilda San Jovanni Cherkovining eshiklarini ishslash uchun haykaltaroshlar o’rtasida tanlov elon qilinadi. Bu haqda Lorenzo Ghiberti do’stlaridan eshitadi va

¹ <https://t.me/c/1759901031/1392>

tanlovga qatnashishini aytadi. Bu paytda Giberti 21 yoshda bo'ladi yosh bo'lishiga qaramasdan u juda trishqoq edi shu sababli o'zining yetti ta raqibidan o'zib ketadi, ular orasida mashhur bo'lib bo'lган arxitektor va haykaltarosh Flippo Brunelleski ham bor edi. 34 kishidan iborat nufuzli komissiya yakunda g'alabani Lorenzo Gibertiga topshirdi. Uning ishi yutib chiqishi bronzadan kamroq foydalangan bo'lsada yoritgan mavzulari qolganlarnikiga o'xshamasdi.² Bu ishni qilishi uchun Cherkov unga ustaxona ham qurib beradi chunki bu paytda hali haykaltarosh sifatida tanilmagan va ustaxonadan ya'ni shogirtlikdan endi chiqqan vaqt bo'ladi. Lorenzo Giberti aslida zargar edi. Ammo o'sha davrdagi ustaxonalarda barcha san'at turlari birday o'rgatilardi masalan haykaltaroshlik, rassomlik, zargarlik, o'ymakorlik, me'morlik va boshqa turlari ham o'rgatilgan. Chunki ustaxona qanday buyurtma olsa shogirtlar ustozlariga yordamlashib o'rganishgan. Shu sababli Lorenzo Giberti bu tanlovga qatnashishga qo'rwmagan. U bu darvozani yaratish uchun 24 yil umrini sarflaydi³, Yangi ahddagi deyarli barcha yoritilan mavzularni joylashtiradi. Uning yangiligi ham shunda chunki ungacha hech bir rassom va hech bir haykaltarosh bu mavzularga murojaat qilmagan bo'ladi. Chunki u bu asarni ishlashdan oldin injilni yaxshilab o'rganib chiqadi. Shundan so'ng Lorenzo Gibertining ishiga tayangan holda boshqa haykaltarosh va rassomlarning ishlarida bu sahnalar ko'rina boshlaydi. Bu darvozani cherkovning shimoliy tomoniga o'rnatishgan bo'lib 28 paneldan iborat. Har bir panel Iso Masih hayotidan so'zlaydi. Bu darvozaning balandligi besh metrdan oshiq va kengligi deyarli to'rt metr bo'lgan. Lorenzo Giberti bu asarni ishlashda antik davrga to'laqonli tayanmagan holatda ishlaydi, bunday deyishimning sababi ishlagan relyeflaridagi haykalchalardagi harakat biroz ko'rsatolgan, ammo antik davrdagi Haykallarga o'xshab dinamikaga boy qilib ishlagagan. Ammo zargar bo'lganligi sababli shunchaki o'yib qo'yagan aksincha panellardagi har bir haykalning ichkari qismlari darvozaga yopishgan holatda bo'lsada yon tomondan qaraganda bemalol orqa tomonlari ham ko'ringan. Bu holatni ayniqsa "Oxirgi kechki ovqat" deb nomlangan panelida ko'rishimiz mumkin. "Oxirgi kechki ovqat" mavzusiga ham birinchi bor qo'l urilgan bo'ladi, aynan shu panelda orqasini o'girib turgan havoriylarning yuzlarini bemalol ko'rish mumkin. U zargar bo'lganligi sababli barcha elementlariga alovida e'tibor bilan ishlaydi. Undagi ishlangan panellar tahliliga keladigan bo'lsak 28 panelda yigirma sakkizta mavzu, Iloxiy Xushxabar, Tug'ilish, Avliyolar ta'zimi, Shifokorlar orasida Masih, Masih Yuhanno tomonidan suvg'a cho'mdirilishi, Sahrodagi vasvasa, Savdogarlarni ibodatxonadan chiqarib yuborish, Bo'ronni bo'ysyo'ndirishi, Bukrini tuzatishi, Lazarni tiriltirishi, Quddusga kirish, Oxirgi Kechki Ovqat, Bo'dagi azob, Masih hibsga olingan, Bayroq, Ponti Pilat oldida Masih, Go'lgotaga yo'l, Xochga Mixlanish, Tirilish, Hosil bayrami, Jon, Matto, Luqo, Mark, Avgustin, Jerom, Buyuk Gregori, Ambrose kabi mavzular yoritilgan.

Iloxiy Xushxabar paneldag'i Bibimaryamning cherkov Ichida berilishi uning taqvodorligi, pokligini ramzi bo'lsa, uchib kelayotgan farishta qanotlar bilan tepadan kabutar bilan ya'ni Xudoning so'zini olib kelayotgani unga Iso Masihning tug'ilishi xushxabarini olib kelayotgan sahna, Panelning o'lchami 52 sm ga 45 smni tashkil qiladi.⁴ Tug'ilish, Bibimaryam turmush o'rtog'i Iosif bilan ro'yxatdan o'tish uchun Dovudlar shaxri Baytlahimga borishi va u yerda mehmonlar ko'pligi tufayli tunashga joy bo'lmay chorva xonada tunaydi aynan Tug'ilish

² https://en.wikipedia.org/wiki/Lorenzo_Ghiberti

³ <https://veryimportantlot.com/ru/news/obchestvo-i-lyudi/lorenzo-ghiberti-biografiya-lorenczo-ghiberti>

⁴ <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/annunciation/>

panelidagi kulba va sigirlarning berilishi og'ilxonada tunaganidan dalolat, tug'ilgandan so'ng uni oxirga xas xushoklar ustiga matoga o'rab yotqizgani ko'rsatilgan.⁵

Avliyolar ta'zimi Iso tug'ilganidan so'ng Iosif va Bibimaryam 7 kunga jo'nab ketishadi, bu vaqtda barcha avliyolar shaxar axolisi bu xushxabardan xabar topadi ular yana shu kulbaga qaytib keladi va Avliyolar kelib unga ta'zim qiladi. Bu sahna uyg'onish davridan oldin Gotika davrida ham juda ko'p rassomlar murojaat qilgan lavha hisoblanadi.⁶

Bir kuni Iso Ibodatxonaga vaz oqiyotgan vaqtida bir ota ona uning oldiga yig'lab keladi, qizi necha kundan beri tuz totmasdan bir joyda ko'zini ochmasdan yotganini bu ketishda undan ayrilib qolishi mumkinligini aytib yolvoradi, yordam berishini so'raydi, Iso Masih rozi bo'lib ular bilan boradi va qizga tur o'rningdan deb boshiga qo'lini qo'yishi bilan uyg'onadadi mo'jizani ko'rgan odamlar hayratda qolishadi⁷

Masihning Suvga cho'mdiruvchi tomonidan suvga cho'mdirilish sahnasi, suvga cho'mdiruvchi odamlarni poklayotgan bir vaqtda ularga bir insonni kutayotgani haqida aytayotgan bo'ladi va u insonni tasvirlab berayotgan vaqtda Iso Masih keladi U tasvirlayotgan inson u ekanligini aytganda ishonmaydi, shu vaqt osmondan Iso Masihning o'ng yelkasiga oppoq kabutar kelib qo'nadi va osmondan sen unga ishon u mening o'g'limdir degan ovoz keladi shundan so'ng daxshatga tushadi va Iso Masih suvga chomdiriladi.⁸

Iso Masihga vahiy kelishni boshlagach u sahroga qirq kun qolib ketadi va shuncha vaqt mobaynida u hech narsa yemaydi och qoladi, Shayton uning kuchsizligidan foydalanab uni vasvasaga solishni boshlaydi, ya'ni agar bir marta unga tiz cho'ksa unga xudo shoxligini berishini, uning boshiga kelayotgan azoblar to'g'risida bayon qiladi va o'zini quddusdag'i ibodatxonaning eng baland joyidan tashlashini aytadi, iymoni butun bo'lganligi tufayli tuzoqqa tushmaydi,⁹

Ibodatxonadan savdogarlarni chiqarishi, Iso Masih barcha boshiga keladigan azoblarni bila turib quddusga yo'l oladi va u yerga yetib borgach qarasaki ibodatxona xuddi bozorga aylanib qolgan, hamma savdolashib ibodatxonaga nega kelganini unitib qo'yanini ko'rgan Iso Masih barcha sotishga qo'yilgan narsalarni chilparchin qilib ularni haydab soladi va shu bilan hatto axoli ham unga qarshi bo'lib qolishi tasvirlab ko'rsatilgan.¹⁰

Bo'ronni bo'ysindirishi, Bir kuni Masih havoriylar bilan qayiqda ko'lning narigi betiga Jaliliya yurtining narigi beti Jadariyaga suzib o'taylik deydi, suzib ketayotganlarida esa u uxlab qoladi, shu vaqtda birdan bo'ron ko'tariladi, havoriylar daxshatga tushadilar va ustoz bizni qutqar biz halok bo'lyapmiz deb uni turg'azishadi, Masih qo'llarini ko'tarib tinchlan deydi va birdan bo'ron tinadi so'ng shogirtlariga qarab imoninggiz qani deb so'raydi.¹¹ Ayni shu voqelik ham Giberti tomonidan murakkab shaklda tasvirlangan.

⁵ <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/nativity/>

⁶ <https://lorenzo-ghiberti/adoration-of-the-magi/>

⁷ <https://lorenzo-ghiberti/christ-among-the-doctors/>

⁸ <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/christ-is-baptised-by-john/>

⁹ <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/temptation-in-the-wilderness/>

¹⁰ <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/expulsion-of-the-money-changers-from-the-temple/>

¹¹ <https://lorenzo-ghiberti/christ-walks-upon-the-water/>

Masih Fayziylarga Ibodatxonada vaz o'qiyotgan vaqtida Bir bukri ayol shifo topish uchun kirib keladi, Masih vazni to'xtatib barchaning oldida uni davolaydi, shu kuni payshanba kuni bo'ladi, oralaridan bir qariya chiqib davo topish uchun shanba kuni kelishingiz kerak edi deydi, bundan jahli chiqqan Masih 18 yildan beri nega shanba kuni unga yordam bermadingiz deya ibodatxonadan chiqib ketadi.

Isoning o'zgarishi bu personaj shunday bo'ladi Iso masih uchta shogirdini olib toqqa ibodat qilgani chiqadi, u ibodat qilayotgan vaqtda shogirtlari dam olishadi, shu vaqt unga o'zidan oldin kelgan ikki payg'ambar Muso va Ilyos ergashadi, Xudo shoxligi to'g'risida unga so'zlaydi va uni Quddusda o'lim topishi haqida so'zlaydi, ibodat vaqtida uning yuzlari o'zgarib boshqacha tusga kirib kiyimlari yanada oppoqlashadi.¹²

Lazarning tirilishi ushbu mavzu tafsiloti Lazar Marta va Maryamning ukasi bo'ladi. Lazar Masihni juda yaxshi ko'radi, bir kuni u betob bo'lib qoladi, akalari Masihga xabar yo'llaydilar Masih ataydan bormaydi chunki u boshqacha mo'jiza ko'rsatishi aytilgan bo'ladi, bir oz fursat o'tgandan keyin Lazarning o'lgani haqida xabar keladi, shundan so'ng yo'lga chiqadi. Borgandan so'ng Marta yig'laydi biz sizga xabar qilgan edik, agarda ertachiroq kelganingizda ukam o'lмаган bo'lardi deydi. Ular allaqachon Lazarni qabrga qo'ygan bo'ladi, shunday bo'lishiga qaramasdan Lazar o'lmaydi sen bunga ishonmaysanmi, Marta shunda shunday deydi ishonaman. Masih Lazar chiq deyishi bilan tiriladi. Shunda u yerda yig'ilgan olomon hayratda qolishadi va buni Masih qilganini rad eta olishmaydi.¹³

Oxirgi kechki ovqat, pasxa bayrami kuni edi, Masih favoriyalar bilan oxirgi ovqatlanish kunida men sizlar bilan bu muqaddas taomni yeyishni juda xoxlagan edim, ammo men xudo shoxligida haqiqiy fisq taomini yemagunumcha bu taomdan boshqa yemayman. So'ng uzum sharbat solingen idishni olib xudoga shukrona aytib, men xudoning shoxligi kelmaguncha bu sharbatdan ichmayman, sizlar bo'lishib bu sharbatdan ichinglar, so'ng nonni oldi va ikkiga bo'lib shogirdlariga berdi va bu non meni tanamni bildiradi qachon yesangiz meni eslang, sharob solingen idishni olib yana dedi bu idishdagi sharob xudoning yangi ahdidir, bu ahd sizlar uchun to'kiladigan qonim evaziga kuchga kiradi dedi. Mana qarang menga xiyonat qiladigan odam men bilan bir dasturxonda o'tribdi. Ha xudo vada qilganday xudo o'g'li jon beradi, Ammo xudo o'g'liga xiyonat qilganning holiga voy, shogirdlari hayron bo'lib oramizda bunday ishni qiladigan odam kim ekan deyishdi, shogirdlar o'rtasida qaysi birimiz katta bo'lishimiz kerak deyishdi shunda Iso yonboshlagan odam albatta katta bo'ladi dedi, orangizda kim katta bo'lsa o'zini eng kichkinadek tutsin, kim boshliq bo'lsa xizmatkordek tutsin dedi. Sizlar Isroil farzandlarining 12 urug'iga boshliqlik qilasizlar, Shayton sizlarni bug'doyni g'alvirdan o'tqazgandek sizlarni sinovdan o'tqazishga izin so'radi, vasvasaga tushib qolmang, men seni iymondan qolmasin deb duo qildim, sen iymonga qaytgach barcha birodarlarlingni iymonda birlashtir, Shimon Isoga javoban Hazrat men siz bilan zindonga ham o'limga ham birga borishga tayyorman dedi, eh sen bugun 3 marta xo'roz qichqirmasdan oldin mendan yuz o'girasan. Men sizlarni to'rvasiz jo'natganimda hech kamchililingiz bormidi, ular yuq dedilar, endi esa kimda hamyon yoki to'rva bo'lsa sotib xanjar sotib olsin dedi, shogirdlaridan biri 2 xanjarni ko'rsatib bizda hozircha bori shu, Iso esa bo'ladi deb javob qaytardi va Zaytun bog'iga ibodat qilishga chiqib ketdi.¹⁴

¹² <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/transfiguration/>

¹³ <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/raising-of-lazarus/>

¹⁴ <https://www.youtube.com/watch?v=AqHWII05dLo>

Azob Masihnинг бурчак томон ibodat qilayotganini va shogirdlari uning orqasida uxlayotganini ko'rsatadi. Bog'ning tasviri juda batafsil butalar, toshlar va daraxtlar bilan batafsil tasvirlangan. Masihnинг qo'lga olinishi paneli Masihn Yahu'do томонидан Rim askarlari томонидан hibsga olinishi uchun belgilab qo'yganligini ko'rsatadi, shogirdlar esa askarga qarshi kurashmoqda. Askarlarning har birida nayza, bolta va qilich kabi individual zirh va qurollar mavjud.¹⁵ Xochga mixlanish paneli tasvirlangan Iso hilpiragan harakatda tayoq ushlab turgan Rim askarlari томонидан qamchilanmoqda. Shimoliy eshiklarning xochga mixlanish panelida Maryam va Yuhanno xoch etagida Masihnинг yonida farishtalar osilgan holda motam tutayotgani tasvirlangan. Meri xochdan pastga qarab motam tutayotgani ko'rsatilgan.¹⁶ kastingning umumiyligi sifati nafis deb hisoblansa-da, ba'zi ma'lum xatolar mavjud. Masalan, Shimoliy eshiklarning 15-panelida oldingi qatordagi ikkinchi ustunning quyilishi qo'l ustiga yopilgan, shuning uchun flagellatorlardan biri toshga tiqilib qolgan, qo'li undan chiqib ketgan.¹⁷

XULOSA

Florensiya ilk Uyg'onish davrining asosiy markazi hisoblanadi. 15-asrning birinchi yarmi va o'rtalaridagi Florensiya madaniyatini rang-barang va boy. Bu davr mustaqil haykal, manzarali relyef, portret byusti, otliq yodgorliklarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. L.Giberti, Donatello, Yakopo della Kuersiya, della Robbia oilasi, A.Rossellino, Desiderio da Settignano, B. da Mayano, A. Verrokkio. Lorenzo Giberti (1381-1455), san'atda va nazariyotchi sifatida mashhur, Uyg'onish davri san'ati tarixida birinchi bo'lib uchta "Izohlar" kitobining muallifi, landshaft va me'morchilikka qarshi ochiladigan bibliya mavzularida murakkab ko'p figurali kompozitsiyalarni yaratdi, fon Ijro uslubida ko'plab gotika ta'siri mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://t.me/c/1759901031/1392>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Lorenzo_Ghiberti
3. <https://veryimportantlot.com/ru/news/obchestvo-i-lyudi/lorenzo-ghiberti-biografiya-lorenzo-ghiberti>
4. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/annunciation/>
5. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/nativity/>
6. <https://lorenzo-ghiberti/adoration-of-the-magi/>
7. <https://lorenzo-ghiberti/christ-among-the-doctors/>
8. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/christ-is-baptised-by-john/>
9. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/temptation-in-the-wilderness/>
10. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/expulsion-of-the-money-changers-from-the-temple/>
11. <https://lorenzo-ghiberti/christ-walks-upon-the-water/>
12. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/transfiguration/>
13. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/raising-of-lazarus/>
14. <https://www.youtube.com/watch?v=AqHWII05dLo>
15. <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/christ-is-arrested/>
16. www.guildofthedome.com. olindi2018-04-24.

¹⁵ <https://www.thehistoryofart.org/lorenzo-ghiberti/christ-is-arrested/>

¹⁶ www.guildofthedome.com. olindi2018-04-24.

¹⁷ Dunyo oynasi: san'atning yangi tarixi (1-qog'ozli tahrir.). Temza & Hudson. p. 161. ISBN 978-0-500-28754-5.

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS

ISSN: 3030-332X Impact factor: 8,293

<https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR>

Volume 9, issue 2, January 2025

worldly knowledge

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X>

17. Dunyo oynasi: san'atning yangi tarixi (1-qog'ozli tahrir.). Temza & Hudson. p. 161. ISBN 978-0-500-28754-5.